O‘QUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Karimova Zulfiya Dusbek qizi – Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter, internet, o‘quv jarayoni, dars mashg‘uloti

XXI asr insoniyatning yangi axborot jamiyatiga kirib borishi ta’lim jarayoniga katta, salmog‘li hissa qo‘shdi. An’anaviy, o‘rganib qolgan o‘qish shaklidan interfaol, ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’lim shakliga o‘tilishi bir qator mulohazalarga zamin yaratdi. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, jahon o‘rgimchak to‘ri (internet)ning paydo bo‘lishi ta’lim jarayonini shakllantirishda va ta’lim berishning yangi shakl va uslublarini ochishga asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ko‘p tadiqiqot ishlari inson va raqamli texnologiya o‘rtasidagi xarakatlarning psixologik-pedagogik aspektlari hamda yuqori ko‘rsatkichga erishish mumkin bo‘lgan raqamli texnologiyalarini qo‘llash usullarining izlanishi jarayoniga bag‘ishlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning bir bo‘lagi bo‘lgan kompyuterdan qanday maqsadlarda foydalanish va qo‘llash masalalariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Kompyuter o‘rgatuvchi vosita sifatida. Informatika darslarida talaba yoshlar kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘rganishadi. O‘qituvchining vazifasi, roli – o‘quvchilarda o‘quv jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarda hamda ta’limning boshqa bo‘g‘inlarida kompyuter texnikalari va axborot texnologiyalardan maqsadli foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Kompyuter ma’lumot olish vositasi sifatida. O‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-didaktik materiallarning etishmovchiligi mavjud hududlarda kompyuter bu birinchi navbatda zaruriy axborotlarni olish imkonini beruvchi vosita. Ushbu holatda o‘qituvchi internet va intranet texnologiyalaridan keng foydalanishlari mumkin.

Kompyuter muloqot qilish vositasi sifatida. Ta’limida internet va ziyonet tarmog‘larining paydo bo‘lishi talaba yoshlarimizda internet loyihalarida ishtirok etish eshiklarini ochib berdi. Bugungi kunda ma’lum bir hududdagi talaba ixtiyoriy joydagi tengdoshlari hamda dunyoning xohlagan burchagidagi qaysi bir ta’lim muassasasi talabasi bilan fikr almashishi, muloqot uyushtirishi hamda zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanilgan ko‘rib turib (on-line rejimida) muloqot uyushtirishlari mumkin.

Demak, hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va o‘quv jarayoniga tadbiq etishni yo‘lga qo‘yishdir. Bunda, AKT ni quyidagi ko‘rinishlarda ko‘rish mumkin:

- Tadqiqot natijalarini olish vositasi sifatida;
- O‘quv faniga oid qo‘shimcha ma’lumotlar manbai sifatida;
- Mehnatni va mustaqil bilim olishni ta’minlovchi vosita sifatida;

- O'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim berish imkonini beruvchi vosita sifatida;

- talabaning faollik darajasini, maydonini oshirishga omil bo'luvchi vosita sifatida.

Bugungi kunda o'qitishning yangi shakllaridan keng foydalanar ekanmiz, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal o'rganishimiz, hamda ulardan o'quv jarayonida keng, maqsadli foydalanishimiz lozim. Buning uchun barcha oliy o'quv yurtlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish yuzasidan tashkil etilgan kurslarda barcha professor-o'qituvchilar qatnashishi zarur. Buning uchun professor-o'qituvchilarni kompyuterda ishlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etish ko'nikmasini shakllantirish uch bosqichli dastur asosida amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Birinchi bosqich – ta'lim muassasasida o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini aniq belgilab olish kerak bo'ladi. Bu bosqichda barcha ta'lim muassasasida so'rov o'tkazish orqali kompyuter texnikasidan foydalanish darajasiga ko'ra quyidagilar aniqlanadi:

- kompyuter texnikasi bilan muloqotni umuman bilmaydiganlar;

- kompyuter texnikasi bilan muloqotni qisman biladiganlar. Bunday xodimlar kompyuterni o'chirib yoqishni, unda murakkab bo'lmagan operatsiyalar bajarishni, ma'lum dasturlarga kirish va chiqishni biladiganlar;

- kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar. Bunday o'qituvchilar kompyuterdagi dasturlar bilan ishlay oladilar, kompyuterdan foydalanuvchi sifatida foydalanishlari mumkin;

- kompyuter texnikasini mukammal egallaganlar. Bunday professor-o'qituvchilar dasturlar bilan ishlay olishdan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq eta oladilar.

Demak, birinchi bosqich o'qituvchilarning bilim darajasi aniqlab olish.

Ikkinchi bosqich – ta'lim jarayonida kompyuter texnikasining maqsadli ishlatilishiga erishish.

Birinchi navbatda, ta'lim muassasasida mehnat qilayotgan barcha professor-o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar darajasiga etkazish lozim.

Buning uchun dastlab zamonaviy texnologiyalar bilan tanish bo'lmagan o'qituvchilarni kompyuter texnikasi bilan muloqot qilishga o'rgatish vazifasi hal qilinadi, ularning shu sohadagi bilim va malakalari ikkinchi guruh – kompyuter texnikasi bilan muloqotni qisman biladiganlar darajasiga etkaziladi. Bu bosqichda o'qituvchilarga "MS Office" dasturlarida ishlash to'liq o'rgatiladi.

Keyingi bosqichda esa, shu ikki guruh professor-o'qituvchilarini birgalikda murakkablashtirilgan dastur asosida kompyuter texnikasi bilan yaxshi muloqot qilishga o'rgatiladi. Barcha nomutaxassis fan o'qituvchilarining kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar darajasiga etkazilishi fanlardan mavzularning

ma'lum qismini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tishi, hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida butun jahon axborot tizimi INTERNETra ulanish, undan materiallar olish va dars jarayonida mazkur materiallardan foydalanish, mavzular bo'yicha dars mashg'ulotlarini loyihalash, dasturlashtirishga imkon yaratadi.

O'qituvchi mavjud dasturlardan avvaldan rejalashtirgan holda dars jarayonida foydalanishi, zarur hollarda dastuplarga vaziyat taqozosiga qarab ayrim o'zgartirishlar kiritishi, dars jarayonida dasturlarni almashtirishi ham mumkin. Bunday darajadagi o'qituvchiga darsga tayyorgarlik, dars jarayonida, darsdan keyin boshqa markazlardan ko'mak olishga ham imkoni bo'ladi. Bu bosqichning hayotga tatbiq qilinishi ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonining hozirgi davr talablari, ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimi darajasiga etkazish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchi bosqichda – kompyuter texnikasidan o'quv jarayonida unumli foydalanish, uning asosida amaliy darslar va seminar-treninglar o'tkazish hisoblanadi. Bu bosqichda asosan professional darajada biladiganlar qismidan foydalaniladi. Har bir fan o'qituvchisi o'zining fanidan kelib chiqib, AKTni dars jarayonida foydalanish koeffitsientini aniqlashni bilishi kerak, ya'ni o'z o'quv fanida AKTdan foydalanish mumkinligi va zarurligi bo'lgan joylarini aniq bilishi va tasavvur qilishi kerak. Shuning bilan birga talabalarga beriladigan topshiriqlarni bajarishlarida Internet manzillarini aniq va to'liq ko'rsatib berishlari kerak bo'ladi.

Uchinchi bosqich juda murakkab va davomli jarayon bo'lib, unda har bir fan o'qituvchisi o'zining fanidan oddiy 1-darajali elektron qo'llanmalarni .doc va .html, ppt, exe, flash videofayl formatlarida tayyorlashi o'rgatiladi. So'ngra ularga quyidagi dasturlar (ya'ni, Macromedia Flash, Macromedia Dreamweaver, Constructor books, Ebook, iSpring kabi)da ishlashni o'rgatish kerak. Bundan ko'zlangan maqsad, professor-o'qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda xizmatchi va amaliy dasturlarni qo'llay bilish asosida ko'zlangan maqsadga erishish. Shuning bilan birga har bir professor-o'qituvchiga kompyuter savodxonligini mustahkamlashga va o'z ustida qayta ishlashga moslashtirilgan o'rgatuvchi dasturlar (rus va o'zbek tillarida) elektron ko'rinishda tarqatma material sifatida berish kerak. Bugungi kunda barcha oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Faqat biz professor-o'qituvchilar o'z fanimizni o'qitish va o'rgatish jarayonida ushbu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ko'proq tadbiq etish orqali ko'zlangan maqsadlarga erishamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sobirova D.T. Yangi axborot texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish omili.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent - 2013
3. Usmonov.A.R. "Zamonaviy axborot texologiyalari asoslari ".T.2007.
4. S.G'ulomov va boshqalar. Darslik. "Axborot tizimlari va texnologiyalari". Toshkent. "Sharq", 2011.